

MUSIQA MASHG'LOTLARIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLAR VA ULARNING QO'LLANILISH METODIKASI.

Jabborova Gulzoda Husen qizi

Buxoro davlat universiteti, I bosqich magistranti

Annotasiya: Mazkur maqolada musiqa mashg'ulotlarida maktab o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol usullar va ularning qo'llanilishi metodikasi haqida olib borilgan tahlillar, interfaol usullarning qo'llanilishi metodikasining nazariy asoslaridan iborat.

Kalit so'zlar: musiqa mashg'ulotlari, ijodiy qobiliyat, interfaol usullar, metodika.

INTERACTIVE METHODS AND METHODS OF THEIR APPLICATION IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF SCHOOLCHILDREN IN MUSIC TRAINING.

Jabborova Gulzoda Husen Khizi

Bukhara State University, Department I stage graduate

Annotation: in this article, the school in music sessions consists of theoretical foundations of the methodology of application of interactive methods and methods of their application in the development of students' creative abilities.

Keywords: music training, creative abilities, interactive methods, methodology.

ПОНЯТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ СПОСОБНОСТИ И ПРИНЦИПЫ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ.

Джабборова Гулзода Хусен кизи

Бухарский государственный университет Выпускник I ступени

Аннотация: в данной статье "Школа на музыкальных занятиях" рассматриваются теоретические основы методики применения интерактивных методов и способы их применения в развитии творческих способностей учащихся.

Ключевые слова: музыкальное обучение, творческие способности, интерактивные методы, методология.

Bugungi kunda musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi va vazifasi nihoyatda muhim. Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan va qadrlaydigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishdan iborat. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini

rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim va amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish- maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir. Musiqa idroki dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat sifatidamuhim o'rin tutadi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma'lum asar tinglanib ijro etiladi va uning badiiy jihatlari dars mavzusiga doir oddiy musiqiy pedagogik yo'sinda tavsif etiladi. Tingalsh orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqaviy xususiyatlari janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi hamda badiiy mazmuni haqidagi ma'lum bilimlarga ega bo'lishadi. Ikkinchi holatda musiqa asarlari avval tinglanib so'ng u yoki bu holati ko'ylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalaniladi. Masalan o'zganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida yoki magnit orqali bir ikki marta tinglaniladi, asar xususiyati haqidagi suhbat qilinadi so'ng o'rganishga kirishiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchi musiqa madaniyatining asosiy poydevori shakllanadi. Ammo maktabgacha tarbiya inson shaxsi shakllanishining muhim, mas'uliyatli davri sifatida mustaqil ahamiyat kasb etadi, chunki u boshlang'ich ta'limning tayyorgarlik bosqichidir. Boshlang'ich maktab musiqa darslarida bolalarning aqliy rivojlanishlari me'yoriga mos oddiy musiqiy bilim, tushuncha va malakalar tarkib toptiriladi. Musiqani tinglash, qo'shiq aytish, raqs tushish, oddiy cholg'ularda chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari va bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasida o'quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiyoj uyg'otadi.

Musiqa madaniyati darsi - maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishning asosiy shaklidir. Musiqiy to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlar ham amaliyotda bo'lsada, dars hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular - ommaviy jamoaviy aytm, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, savodxonlik, musiqa ijodkorligi, bolalar cholg'u asboblari chalish faoliyatidir.

Musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o'zining badiiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsional tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, "Musiqa tarbiyasisiz bolalarga aqliy tarbiyani etarli darajada bajarib bo'lmaydi". Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir.

Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'layotgan san'atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini ilib olib tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi.

Shuning uchun klassik asarlarni ham bir qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz.

Musiqqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. "Qachonki so'z ojizlik qilsa, musiqqa yordamga keladi. Umumiy o'rta ta'limning dastlabki sinf o'quvchilarining psixo-fiziologik xarakterga binoan, ma'lum darajada, o'quvchilarning diqqat-e'tibori, nutqi va xotirasi to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Ushbu sababli o'quvchilar serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Bolalarning ovoz apparatlari to'liq rivojlanmaganlik sababli, zaif va nozik, ovoz pardalari esa kuchsiz holatda kuzatiladi. O'quvchilarning ovoz kuchi va tembri bo'yicha o'g'il bolalar va qiz bolalarda deyarli farq ko'rinmaydi. Shu sababli, ularda tovush faltset tipida hosil bo'ladi. 1-sinf o'quvchilarining ovoz diapozoni - do1 . Iya1; do1- do2. Ma'lum o'quvchilarning ovozlari normal holatda bo'lsa-da, ular to'g'ri kuylash pardalariga tusholmaydilar. Sababi shundaki, o'quvchilarda musiqqa eshitish a'zosi bilan tovush hosil qilish apparati orasida o'zaro farq qilishini sezish bo'yicha umumiy muvozanat rivojlanmagan bo'ladi. Shu bois, bolalarning musiqiy o'quv qobiliyatlari har xil bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini sinchiklab o'rganib, ularni differentsional guruhlarga bo'lib, joylariga o'tkazish lozim. Negagi har bir musiqqa madaniyati dars jarayonida bolalarning badiiy zavq olish, qo'shiq o'rganish bilan, shuningdek, nutqi, ijodiy fikrlash qobiliyati, musiqiy bilimi shakillana boradi.

1. Darsni musiqaviy umumlashtiruvchi metodi.
2. Tashkil qilinadigan darslarga oldindan bog'lanib tashkil etish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
3. Dars mazmunini emotsional dramaturgiyasi metodi.
4. Dars jarayonining pedagogik jihatdan kuzatilishi va o'rganilgan bilimlar darajasining baholanish metodi.

1. Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi. Ushbu metod yetakchi metodlardan biri hisoblanib, o'quvchilarni musiqqa idroki, kreativ badiiy fikrlash qobiliyatini shakillantirishga yo'naltirilgan:

- ❖ O'qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo'lgan aniq vazifalarni vujudga keltiradi;
- ❖ O'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda muammoni yechadi.
- ❖ O'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

Musika tinglash musika faoliyatlarining yetakchisi hisoblanadi. Zero darsda jarayonida foydalaniladigan barcha musiqqa materiallari asosan eshitib o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi. 2-sinf tematikasida darsning badiiy kompozitsiyasi vujudga keladi. Darsning kulminatsion nuqtasi bolalarda aktiv qizikish uyg'otadi. Badiiy emotsional kechinmalarni paydo qiladi. Shu orqali darsning emotsional dramaturgiyasiga erishish mumkin. O'qituvchi darsni ishonchli dalillar yordamida, ko'rgazmali qurollar, texnika

vositalari yordamida o'tishi kerak. Dars rejasini tuzganda ijodiy yondoshmog'i, yaxshi tayyorgarlik ko'rib pyxta ishlab chiqishi zarur. O'quvchilar musiqani chuqur idrok etishi uchun faoliyat turlaridan foydalaniladi:

- 1) Xor bo'lib kuylash aytish.
- 2) Chapak va urma cholg'u asboblarida musiqaga ritmikjo'r bulish;
- 3) Musiqa xarakteri va obrazlarini harakatlarda ifodalash.

"Interfaol metodlar" atamasi o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va boshqariladigan shaklda tashkil etish usullarini anglatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonni axborot-kommunikatsiya vositalari, innovatsion metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish haqidagi qaror va farmonlari zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayoniga chuqur tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu, o'z navbatida, ijrochilik faoliyatini o'qitishda ham yangi bosqichni boshlab berdi. Musiqa ta'limida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Interfaol metodlar (klaster, aqliy hujum, "Insert", "Blits so'rov" va boshqalar);

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimedia, onlayn darslar, virtual ansambllar);

Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi;

Modulli ta'lim;

Muammoli ta'lim;

Kreativ pedagogika;

Reflektiv yondashuvlar.

O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishda interfaol metodlarning roli juda muhimdir. Interfaol o'qitish metodlari o'quvchini faol subyekt sifatida dars jarayoniga jalb etadi. Musiqa darslarida bu metodlar o'quvchilarning musiqiy eshituvini, ritmik sezgisini, ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Masalan:

"Aqliy hujum" usuli orqali o'quvchilar asarni turlicha talqin qilish variantlarini taklif etadi; "Rol o'ynash" usuli sahnaviy chiqishlarda emotsional tayyorgarlikni oshiradi; "Klaster" usuli musiqiy g'oya va obrazlarni tizimlashtirishga yordam beradi; "Insert" texnikasi esa tinglovchi va ijrochi o'rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi. Bu usullar orqali o'quvchi dars jarayonida nafaqat passiv tinglovchi, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Shu yo'l bilan u o'zining musiqiy salohiyatini mustaqil namoyon eta oladi.

Xullas, musiqaning madaniy hayotda tutgan o'rni muhim bo'lib, musiqiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda uning bosh maqsad va vazifalarini to'liq anglab mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, o'qituvchining dolzarb vazifalaridandir. Musiqa

pedagogikasi, uslubiy va moddiy ta'minot, musiqa folklori, iqtidori cheklangan bolalar, vorislik qilish, spetsifik xususiyatlar, aralash dars, faol, emotsional ta'sir, ruhiy ta'sir, ta'lim-tarbiya kontseptsiyasi, pedagogik tafakkur egasi, badiiy ehtiyoj, badiiy baholash, kuyning o'zgaras va o'zgaruvchan qaytarilishi, notaga qarab kuylash.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv fani umumiy ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

REFERENCES

1. Abralova M, Galiyeva D. Qo'shayev A. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi., 2008;
2. Avliyoqulov N. X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent, 2001;
3. Begmatov S., D. Karimova 6 sinf. «Musiqa» darsliklari T.,2008
4. Hasanov A. «Musiqa va tarbiya»., Toshkent., «O'qituvchi» .,1993;
5. Ismailov Tohir Xushnodbek o'g'li; «Formation of student aesthetic competition by teaching the works of Russian classic composers in music culture classes»; «Молодой ученый» №17 (359), апрель 2021 г. <https://moluch.ru/archive/359/80355/>.
6. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» T., TDPU.,2008
7. Mansurov A, Karimova D. «Musiqa» 5 - sinf uchun dasrlik. , Toshkent .;